



O'RMON XO'JALIGI DAVLAT KADASTRI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA BAJARILADIGAN ISHLARNING TEXNOLOGIK XARAKTERINI ISHLAB CHIQISH

Baratova Maftuna Zafar qizi

*Qarshi davlat texnika universiteti "Yerdan foydalanish, geodeziya va
geoinformatika" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *O'rmon hududlari kadastrini yuritishni avtomatlashgan tizimini takomillashtirish, o'rmon hududlarini kengaytirish va undagi daraxtlarni tizimli ro'yhatga olish, ma'lumotlar bazasini to'ldirish, o'rmon yerlari ta'minlash orqali ushbu xizmatlardan foydalanuvchilar qatlamini oshirishga xizmat qiladi va kadastr sohasi rivojiga davlat byudjet tomonidan ajratilayotgan mablag'larni o'rmonchilik sohasiga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirish imkonini yaratadi.*

Kalit so'zlar. *Davlat o'rmon kadastr, o'rmon resurslari, klassifikator, metodologik tavsif, gruntlar.*

Аннотация. *Совершенствование автоматизированной системы ведения лесного кадастра, расширение лесных площадей и системный учет деревьев в них, наполнение базы данных, предоставление лесных угодий послужат расширению пользовательской базы данных услуг и позволят средства, выделяемые из государственного бюджета на развитие кадастровой отрасли, направлять непосредственно в лесное хозяйство.*

Ключевые слова. *Государственный лесной кадастр, лесные ресурсы, классификатор, методическое описание, почвы.*

Abstract. *Improving the automated system for maintaining the forest cadastre, expanding forest areas and systematically registering trees in them, filling the database, and providing forest lands will serve to increase the user base of these services and will allow the funds allocated from the state budget for the development of the cadastre sector to be directly directed to the forestry sector.*

Keywords. *State forest cadastre, forest resources, classifier, methodological description, soils.*

KIRISH

Bugungi kunda viloyat bo'yicha korxona, tashkilot, muassasalar, fermer-dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning foydalanishdagi jami yerlar 2 856 799 gektarni tashkil etib, shundan sug'oriladigan yerlar esa 417 266 gektarni yoki umumiy yer maydonning 14,6 foizini tashkil qiladi. Qashqadaryo viloyatining o'rmon fondi yerlari 412052 gektar (umumiy yer maydonga nisbatan 14,4 foiz) tashkil qiladi. [2] Har qanday davlatning kuchi uning hududida xom-ashyo va tabiiy resurslarning mavjudligi, shuningdek ushbu resurslarning yuqori samarali texnologiyalar bilan qayta ishlash qobiliyati bilan belgilanadi. Yer uchastkasida o'sadigan – buta o'simliklarning ma'lum bir to'plamini o'rmon tashkil qiladi. Davlat o'rmon kadastr o'rmon fondining ekologik



iqtisodiy va boshqa miqdoriy va sifat xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Davlat o'rmon kadastri ma'lumotlari o'rmon xo'jaligida davlat boshqaruvi, uni yuritishni tashkil etish, o'rmon xo'jaliklarini yuritish va o'rmon fondidan foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda o'rmon yerlarini tasarruf etish, o'rmon fondidan foydalanganlik uchun to'lov miqdori hisobini yuritish, o'rmondan foydalanuvchilar va o'rmon kadastrini yurituvchi shaxslar xo'jalik faoliyatini baholashda qo'llaniladi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI: Davlat o'rmon kadastrini yuritish va uning reestri quyidagi ma'lumotlar asosida yuritiladi:

❑ o'rmon fondi yerlarining tarkibi, o'rmonlar joylashgan boshqa toifadagi yerlarning tarkibi to'g'risida;

❑ o'rmonchilik, o'rmon bog'lari ularning o'rmon kvartallari va o'rmon ta'minoti ajratmalari to'g'risida;

❑ himoya zonalar, eksplutatsiya, o'rmon yerlaridagi zaxira yerlar, o'rmon hududidan foydalanish uchun maxsus sharoitlarga ega zonalar to'g'risida. O'rmon resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

❑ o'rmon resurslar va atrof-muhit ekologiyasini yaxshilash uchun to'lov tizimi;

❑ o'rmon resurslarini hisobga olish va baholash;

❑ o'rmondan foydalanishni litsenziyalash;

❑ atrof-muhitni sug'urtalash va fondni shakllantirish.

O'rmonlarning davlat ro'yxatidan o'tkazishning muhim masalalari, ya'ni davlat o'rmon kadastri, ularni baholash bo'lib bu alohida o'rmon xo'jaligining iqtisodiy faoliyati natijalarini obyektiv ravishda taqqoslashga imkon beradi.[1] O'zbekiston Respublikasi davlat o'rmon kadastri ma'lumotlari o'rmon xo'jaligini boshqarishda o'rmonlardan oqilona foydalanishni tashkil etish, ularni ko'paytirish, himoya qilish, o'rmon fondidagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarini tizimli nazorat qilish kabi vazifalarni tizimli ishlab chiqish uchun yuritiladi. O'rmon kadastrini yuritish o'rmon xo'jaligining buxgalteriya hujjatlari asosida shuningdek o'rmon fondini tekshirish, monitoring asosida amalga oshiriladi. O'rmon fondi to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar o'rmon xo'jaligidan oqilona foydalanishni ta'minlash va uning samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga olgan o'rmonlarni rivojlantirish jarayonida qo'llaniladi. O'rmon kadastri yashil maydonlarning tasnifiga asoslanadi. Yashil maydonlar klassifikatori o'rmon kadastri tarkibini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tarkibni shakllantirish uchun quyidagi ma'lumotlar to'planadi:

❑ joylashuv;

❑ klassifikator kodi;

❑ maydon ko'lami;

❑ foydalanish maqsadi.



TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI: Davlat o'rmon kadastri "O'rmon to'g'risida", "Davlat kadastrlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq yuritiladi. Ushbu huquqiy hujjatlar o'rmonlardan foydalanish, himoya qilish va ko'paytirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangan. O'rmon xo'jaligi yerlarini davlat kadastrini yaratish va yuritish konsepsiyasiga muvofiq, kadastr ma'lumotlari o'rmonning hududiy-loyihaviy tarkibini (o'rmonlar, tumanlar, seksiyalar nomlari, chegaralari, kodlari, maydonlar va obyektlarning joylashgan o'rni) xarakterlaydigan umumiy hamda obyektlar va voqeliklar bo'yicha quyidagi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga bo'linadi:

- o'rmon yerlari — kadastr uchastkalarining o'lchamlari va maydonlari,
- yerdan foydalanuvchilar, yer turlarining tavsiflari, sifat va iqtisodiy baholash to'g'risidagi ma'lumotlar;
- suv kengliklari - suv kengliklarining nomi, o'lchamlari, tavsiflari hamda gidrotexnik inshootlarning texnik tavsiflari;
- tuproqlar - jinslarning geologik - tarkibli va metologik tavsiflari, yoshi, genezisi, relefning morfologiyasi, yer osti suvlarining tavsifi, gruntlar xususiyatlarining hisob ko'rsatgichlari;
- yashil daraxtzorlar - turlari, soni, navlari, yoshi, o'lchamlari, holatlari va boshqa tavsiflari;
- ko'chalar va yo'llar - o'lchamlari, konstruksiyasi, texnik tavsiflari. toifasi,
- nishabligi, profili, xarajatning intensivligi, yo'l inshootlari;
- tibbiyot — sog'liqni saqlash obektlarining tavsiflari (poliklinikalar, kasalxonalar, dispanserlar, tez yordam stansiyalari va boshqalar);
- ekologiya - ifloslash manbalari, ularning turlari, tavsifi, shovqinlik darajasi, o'rmon hududining zaharli gazlar bilan buzilganligi;
- xizmat ko'rsatish sferasi - savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, madaniy va san'at, quvvati;

XULOSA VA TAKLIFLAR: O'rmon xo'jaligi yerlarini davlat kadastrining materiallarini kadastr ma'lumotlarini yoritish usullari bo'yicha bo'lish ancha maqsadga muvofiqdir.

Bunda ma'lumotlarni yoritishning qat'iy usullari natijasida olingan materiallar plan -xaritalar sifatida, barcha qolganlari - hujjat sifatida aniqlanadi.

O'rmon xo'jaligi yerlarini davlat kadastrining plan-xarita materiallari kadastr planlari, chizmalar, sxemalar ko'rinishida, hujjatlari esa grafiklar, jadvallar, ro'yxatlar, reyestrlar ko'rinishida bo'ladi.

Plan-xarita materiallarining mazmuni obyekt yoki voqelikning xususiyatlarini yorituvchi kadastr ma'lumotlarining elementlari, chizmalar va sxemalarning to'plami bilan aniqlanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat o'rmon kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 250-son qaroriga 1-ilova.
2. С Турайев, ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА МАВЖУД ЕРЛАРДА ЎТКАЗИЛГАН МОНИТОРИНГ НАТИЖАЛАРИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND, 2022
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Wp3R0bQAAAAJ&citation_for_view=Wp3R0bQAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
3. АЭ Хакбердиев- ВЛИЯНИЕ РЕФОРМ АГРАРНОГО СЕКТОРА НА РЕГУЛИРОВАНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ПРАВИЛЬНУЮ ОРГАНИЗАЦИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО МОНИТОРИНГА Universum: технические науки, 2023 1-1 (106) 23-25
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Wp3R0bQAAAAJ&citation_for_view=Wp3R0bQAAAAJ:dfsIfKJdRG4C
4. Samieva, T. S., Mirkomilova, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 275-277.
5. Akbarov, K., Alimov, N., Otazhonov, S. M., & Khomidov, V. O. (2010). The external impact on photoelectric properties of nano-crystal p-CdTe films.